



TARIXIY FILMLARDA SYUJET RIVOJI VA KOMPOZISIYA

Iqbol Mamasodiqovich Meliq'zief

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti,

"Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati"

kafedra mudiri, s.f.d. (PhD), professori v.b.

э-mail: iqbol.1981.nozxon@gmail.com

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-23>

ARTICLE INFO

Received: 28th January 2023

Accepted: 08th February 2023

Online: 09th February 2023

KEY WORDS

Operator, san'at, tarix, o'bektiv, fotokamera, rang, yorug'lik, kompozitsiya, simmetriya, kino, kinooperatorlik maktabi, ijodkor, badiiylik, tasviriy yechim.

ABSTRACT

Mazkur maqolada kompozitsiya kadrning obrazlilik, uning badiiy hamda hujjatli film operatorining asosiy vazifasi bo'lib, bu vazifani bajarishda operator materialni hayot oqimidan oladi, uni talqin etadi, lekin ushbu materialga o'z talqinini majburan yuklab qo'ymaydi. Obrazli kadrni tashkil etuvchi komponentlarni qidirib topish va tartibga keltirishning murakkabligi shundan iboratki, ob'ektni ifodalovchi alomatlarining soni va sifati chegarasiz. Operatorning asl mahorati faktlar, hodisalar va vaziyatlarning xaosi orasidan tomoshabinga suratga olingan ob'ekt haqida eng haqqoniy va eng ifodali tarzda hikoya qilib bera oladiganlarini tanlab olishdan iboratdir hamda operatorlik san'ati usullari to'g'risida fikr yuritiladi.

KIRISH

Barcha san'at namunalari zamirida o'ziga xos mavzu va g'oyalar ilgari suriladi. Xoh teatr, xoh kino yoki tasviriy san'at asari bo'lishidan qat'iy nazar, ular orqali ijodkorlar o'y - fikrlari va maqsad - vazifalari jamiyatdagi insonlarga o'rnak bo'lmog'i lozim. Ma'lumki, kino san'ati bir nechta san'atlar uyg'unligida vujudga keladi. Bu borada esa tasviriy san'at yetakchi o'rinda. Chunki biz filmni tasvirsiz tasavvur eta olmaymiz. Filmning asosi hisoblanmish ssenariy ham tasviriy lavhalar orqali o'z mazmunini ifodasini topadi.

Zamonning jadal rivojlanishi kino san'atini shaklan ahamiyatini, ta'sirchanligini yanada oshirdi. Kino, fotografiya, grafika, rassomchilikka yaqin bo'lsa-da, faqat o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlari mavjud. Kino san'atida vujudga kelgan voqealar, harakat, tasvir, makon va davr ichida kechadi. Xuddi mana shu tasviriy o'ziga xoslik bilan kino san'ati boshqa san'atlardan ajralib turadi. Mazkur san'at nafaqat millatimiz ma'naviyati, madaniyatini shakllantirishga, balki uni jahonga tanitishda ham o'zining hissasiga ega. Shu sababli ham kino ommaviy san'atidir.

Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni boy tariximiz, tarixiy shaxslarimiz bilan tanishtirishda ham kino san'atining o'rni beqiyos. Vatanimizdagi tarixiy voqealarni eng birinchi bo'lib kintasmalarga muhrlagan birinchi o'zbek kinooperatori bu Xudoybergan Devonov edi (1878-1940). U 1907-08 yillar Moskva, Peterburgdan teleskop, grammofon, foto va kino uskunalari olib kelib fotolaboratoriya tashkil etgan. Bu laboratoriya Xorazmda



fotokinostudiya vazifasini o'tagan. Devonov ijodi rus kinosan'atkorlari faoliyati bilan deyarli bir vaqtda boshlangan. U "O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari", "Turkiston ko'rinishlari", "Xiva va xivaliklar" kabi qisqa metrli filmlarni suratga olgan. Keyinroq, 1925 yillarda "Sovkino" muxbiri sifatida ishlab Moskvaga "Sho'r ko'l", "Ishchi ayollar" singari syujet va lavhalarini yuborib turdi. Lekin bu filmlar hujjatli xarakterga ega edi.

USULLAR

O'zbekistonda badiiy kinofilmlarning ilk namoyishi 1897 yil Toshkentda bo'lib o'tgan. 1924 yili "Buxkino" nomli Rus-Buxoro o'rtoqlik tashkiloti tashkil etilib, u 1925 yili bir qator hujjatli filmlar hamda "Sevzapkino" kinostudiyasi bilan birgalikda "O'lim minorasi" filmini suratga olgan. Ushbu film, o'sha davrda xalq orasida mavjud bo'lgan rivoyat asosida suratga olingan va aytish mumkinki aynan shu film tarixiy janrda vatanimizda suratga olingan eng birinchi filmidir.

1925-26 yillarda "Buxkino", "Sharq yulduzi", "O'zbekkino" korxonalar idorasi tashkil etildi va "Sharq yulduzi" kinofabrikasi ochildi¹. Xuddi shu yillardan boshlab ko'plab filmlar yaratildi. Bunga "O'lim minorasi" ("Buxkino", 1925 y., rejissyor V.Viskovskiy, operator F.Verigo-Darovskiy), "Musulmon qizi" ("Buxkino", 1925 y., rejissyor D.Bassaligo, operator V.Dobrzanskiy), "Paxtaorol" ("Sharq yulduzi" k/s., 1925 y., rejissyor-operator Sh.Cherbakov), "Quyoshli baxt" ("Sharq yulduzi" k/s., rejissyor V.Krivsov, operator N.Gasilov), "Ikkinchi xotin" ("Sharq yulduzi" k/s., rejissyor M.Doronin, operator V.Dobrzanskiy), "Chodra" ("Sharq yulduzi" k/s., 1927 y., rejissyor M.Averbax, operator A.Lemberg), "Ravot qashqirlari" ("Sharq yulduzi" k/s., 1927 y., rejissyor K.Gertel, operator A.Dorn, kompozitor V.Uspenskiy), "Yopiq furgon". ("Sharq yulduzi" k/s., 1926 y., rejissyor O.Frelix, operator V.Dobrzanskiy), "Moxov ayol" ("Sharq yulduzi" k/s., 1927 y., rejissyor O.Frelix, operator V.Dobrzanskiy), "Musulmon qizi" ("Sharq yulduzi" k/s., 1926 y., rejissyor O.Frelix, operator A.Ginzburg), "Masjid qubbasidan" ("Sharq yulduzi" k/s., 1928 y., rejissyor K.Gertel, operator A.Dorn), "Do'stboy Arabiy" ("Sharq yulduzi" k/s., 1930 y., ssenariy muallifi va rejissyor N.Zubova, operator F.Verigo-Darovskiy), "Bag'doddan chiqqan amerikalik" ("Sharq yulduzi" k/s., 1931 y., rejissyor N.Klado, operator F.Verigo-Darovskiy) kabi filmlarni misol qilib keltirish mumkin.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Mashhur operatorlardan biri V.Chumak shunday deb yozadi: "tomoshabinga voqea ishtirokchisi sifatida qarash, uni dunyoqarash va bilim doirasini hisobga olish – bu kino san'atining rivojlanish yo'lidagi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Agar tomoshabinga fikrlash imkoni berilsagina, u film voqealarini aniq tahlil qila oladi."² Yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda aytish mumkinki, kino san'atining inson ongi va tafakkuriga, jamiyat hayotiga ta'siri katta.

Ekrandagi qahramonlar va ular tomonidan sodir etilayotgan xatti-harakat, filmda ko'tarilgan mavzu, muammolar har bir tomoshabinga ta'sir etmay qolmaydi. Chunki, qahramonlar o'rnida tomoshabin o'zini tasavvur qiladi, shu sababli ham kino san'ati eng ommaviy san'at turi sifatida e'tirof etiladi. Odamlar orasida tomoshabin kinofilmni ko'rish, tushuna bilish, hatto uni tahlil qilish va baholash uchun maxsus tayyorgarlik zarur emas

¹Ushbu kinofabrika 1958 yildan bo'shlab "Ўзбекфильм" deb yuritila boshlagan.

²Абулқосимова Х. Кино санъати асослари – Т.: Давлат илмий нашриёти, 2009.53-б.



degan yanglish tushuncha bor. Ko'pchilik kishilarning bunday mulohazalari nafaqat tomoshabinlarning estetik didini muttasil o'sib borishiga, ma'lum darajada kinematografiya sohasining ham rivojlanishiga sezilarli darajada salbiy ta'sirini ko'rsatishi muqarrardir.

Tasviriy yechim. Tarixiy janrdagi badiiy filmlar zamonaviy mavzuda yaratilgan filmlardan albatta farq qiladi. Zamonaviy va badiiy filmlarni o'zaro birlashtirib turuvchi yagona narsa bu filmlarda ko'tarilgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar bo'lishi mumkin. Boshqa jabhalarda ular ko'p jihatdan farq qiladi.

Tarixiy filmlar zamonaviy mavzularda suratga olingan filmlardan avvalo bu filmlarda ko'tarilgan mavzu bilan farqlanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, tarixiy filmlar ham bir necha yo'nalishlarda yaratiladi. Tarixiy biografik filmlar tarixiy bo'yoqlar asosida taqdim etilayotgan filmlardan har taraflama farq qilishi tabiiy. Tarixiy filmlardagi tasviriy yechim, ya'ni kadr kompozitsiyasi, epizodlar kompozitsiyasi va filmning umumiy kompozitsion qurilishi o'ziga xos tarzda shakllanadi. To'g'ri, drama nazariyasi nuqtai nazaridan film kirish qismi, ya'ni ekspozitsiya, tugun, avj nuqta va yechimdan iborat bo'lishi badiiy kinodagi barcha ekran asarlariga xos umumiy xususiyat. Biroq har qanday film o'z mavzusi, o'z stilistikasi, o'zida aks ettirgan tarixiy davri va boshqa ko'rsatkichlar tomonlama biri biridan farqlanadi.³

Tarixiy mavzudagi badiiy filmlarni yaratishda ijodiy guruh, avvalo rejissyor va postanovkachi operator va film bosh rassomi filmda aks ettirilayotgan davrning muhitini haqqoniy va ishonchli tarzda yetkazib berishga intiladilar. Yo'l qo'yilgan kichik bir kamchilik ham butun boshli filmning tomoshabinlar tomonidan sovuq kutib olinishiga sabab bo'lishi mumkin.

Kompozitsiya. Tarixiy filmlardagi kadr kompozitsiyasi yoki epizod kompozitsiyasi o'zining turg'unlikka, vazminlikka asoslanganligi bilan ajralib turadi. Lekin, filmning syujet rivojidan kelib chiqib, janridan kelib chiqib film kompozitsiyasi, uning dinamikasi farq qilishi mumkin. Ko'p hollarda tarixiy filmlarda statik holdagi tasvirlarni kuzatish mumkin.

Yorug'lik bilan ishlash. Tarixiy filmlarni yaratishda yorug'lik bilan ishlash operatoridan katta mahoratni talab qiladi. Chunki, uzoq tarixga bag'ishlangan tarixiy filmlarni suratga olishda ko'pincha operatorlar minimal yorug'lik sharoitida ishlash talab etiladi. Bunga sabab oddiy, uzoq tarixda kuchli yorug'lik beruvchi sun'iy yorug'lik manbaalari mavjud emas edi. Agar operator olis o'tmish haqida film suratga olayotgan bo'lsa va bu voqealar tun sharoitida ro'y berayotgan bo'lsa, operator kuchli yorug'lik vositalaridan foydalansa bu holat tomoshabinda film voqealarining haqqoniylikiga nisbatan shubha bilan qaray boshlaydi. Bu juda qo'pol xato hisoblanadi. Zotan, ishonchlilik va haqqoniylik tarixiy janrga qo'yiladigan talablarning eng asosiysidir.

Rang bilan ishlash. Tarixiy biografik filmlarda shu bilan birga rangdan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zi tarixiy obrazlarning xarakterini ochib berish uchun rang xal qiluvchi o'rin egallaydi. Hatto muayyan tarixiy shaxsning obrazi aniq bir rang bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

³ Modern Uzbek Cinematography Development Issues (On the example of the Tashkent International Film Festival "Pearl")



Tarixiy filmlarni suratga olishda operator avvalo muayyan uslubni, aniq bir kompozitsion, yorug'lik va rang, qolaversa, tasvirga olish uslubini ham tanlab oladi. Albatta, bu ishni u film rejissyori va rassomi bilan hamkorlik va hamfikrlikda bajaradi. Tanlab olingan uslub filmning barcha komponentlarining uslubini va yo'nalishini, hattoki montaj yo'nalishi, aktyorlar ijrosining qanday bo'lishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.⁴

Operator hozirgina suratga olgan lavha oldingi yoki keyingi lavhalarining bir qismigina ekanligini yaxshi biladi. Bu lavhalar montajda jamlanib, yaxlit epizodni tashkil etadi. Epizodlar esa behisob. Operator yanglishib ketmaslik va uslubning bir xilligini, suratga olishda yakdillikni saqlash uchun filmni oldindan to'laligicha "ko'rishi" kerak. Bu albatta, operatorning yuksak kasbiy mahoratiga bog'liq. Nafaqat kinematografiya ilmi, balki o'z kasbining nozik texnik tomonlarini chuqur bilgan operator suratga olgan film ma'nodor va ifodali chiqishi shubhasizdir.

Mamlakatimizga kinooperatorlik sohasining kirib kelishi va shakllanishi ko'plab ijodkorlar faoliyati bilan bog'liq. O'tgan asrning yigirmanchi yillari oxirida kirib kelgan operatorlik sohasi san'at darajasiga ko'tarilguniga qadar murakkab yo'lni bosib o'tdi. Uning taraqqiyot yo'li avval ta'kidlanganidek, to'rt bosqichdan iborat bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida mamlakatimizga evakuatsiya qilingan ko'plab rus, ukrain, belorus ijodkorlarning faoliyati, sohaning sir-asrorlarini o'rgatishdagi amaliy yordami o'z ahamiyatini ko'rsatdi. Ana shunday mahoratli kinooperatorlardan biri, ko'plab o'zbek ijodkorlariga sohaning yetakchi jihatlarini o'rgatgan yirik san'atkor D.Demuskiy edi.

D.Demuskiy 1928 yil "Arsenal" (rej.A.Dovjenko), 1930 yil "Zemlya" (rej.A.Dovjenko), 1931 yil "Fata morgana" (rej.B.Tyagno), 1932 yil "Ivan" (rej.A.Dovjenko) kabi qator filmlarda kinooperator sifatida o'z iqtidorini ko'rsatgan edi. Uning O'zbekistonda suratga olgan "Nasriddin Buxoroda" (rej.Ya.Protazanov, 1943y.), "Tohir va Zuhra" (rej.N.G'aniev, 1945y.), "Nasriddinning sarguzashtlari" (rej.N.G'aniev, 1946y.) kabi durdona filmlari o'ziga xos mahorat namunalari bo'ldi.

Badiiy kinoda D.Demuskiy poetik, obrazli kinematograf asoschilaridan biri sanaladi. Uning filmlarida tasvir yaratishda yorug'lik gammalari va optikadan mohirona foydalanish, turli usul va vositalar qo'llash san'ati, borliqni ko'rish va olamni idrok etishdagi yuksak qobiliyati keng namoyon bo'ladi. D.Demuskiy mamlakatimizda suratga olgan kino durdonalarida kinooperatorlikning eng zarur xususiyatlari ya'ni yoritish, yirik va orqa plan, personajlar mimikasi, kechinmalar ifodasi kabi sohaning nozik jihatlari o'z aksini topgan.

Rejissyor Ya.Protazanovning "Nasriddin Buxoroda" filmi suratga olishda D.Demuskiy rassom V.Yeremyan bilan ijodiy hamkorlik qildi. Mazkur filmda D.Demuskiy ilk bor Sharq folklori mavzusi bilan to'qnashadi. Ushbu ilk uchrashuv ssenarist V.Vitkovich, rejissyor N.G'anievlar qatori operator D.Demuskiy va rassom V.Yeremyanlar ijodiy faoliyatining keyingi rivojida muhim o'rin tutdi. Ssenariy va film markazida o'zbek xalq og'zaki ijodida milliy qahramonga aylangan Nasriddin Afandi sarguzashtlarini yoritish turadi. Filmning o'zbek xalqiga xos milliy etnografik va folklor namunasini ifoda etgan koloriti bir qarashdayoq o'ziga

⁴ KHATAM FAYZIEV-A BRIGHT REPRESENTATIVE OF THE UZBEK CINEMATOGRAPHY SCHOOL



jalb qiladi. Dastlabki kadrlar shahar ko'rinishi bilan boshlanadi, so'ngra gavjum kishilarning shahar darvozasiga kirayotganiga o'tiladi. Mazkur tasvirlar beixtiyor tomoshabinda ishtirok effektini tug'diradiki, bu kompozitsion tasviriy mizanssenani to'g'ri tanlanganligini ko'rsatadi. Ana shundan so'ng Nasriddin Afandining mashhur qo'shig'i yangrar ekan, u statik tasvirda o'rta planda shahar darvozasi oldida ko'rinadi. Operator mahorati orqali kamera bilan aktyorning birgalikdagi harakati namoyon bo'lib, plastik kompozitsion o'zgarish vujudga keladi.

Mazkur filmda rejissyorning g'oyaviy maqsadi operator mahorati bilan to'liq amalga oshirilganini kuzatish mumkin. Shu ma'noda Guljon bilan Nasriddining hovuz bo'yidagi uchrashuvi epizodini tahliliy o'rganish o'rinli. Epizod umumiy plan bilan boshlanadi. Guljon eshikdan chiqib keladi, hovuz bo'yida Nasriddin bilan uchrashishi lozim. Bu sahnada dastlab nigohimiz qizning suvdagi aksiga qaratilib, operator ishi diqqatni tortadi. Guljonning suvdagi aksi aslida real nuqtadan va kamerani 180 gradusga aylantirish orqali olingan bo'lib, tomoshabinga esa tabiiy muhitda, hovuz betida ko'rinayotgan tasvir sifatida ta'sir qiladi. Bu esa operatorning optikaning ikki o'zgarimas *"yorug'lik sinishi"* qonuniyatlarini mukammal egallaganligini ko'rsatadi. Filmida voqealarining ketma-ket tasvirga olingan kadrlarida dramaturgik tasviriy yechimning ssenariy epizodlariga estetik va kompozitsion jihatdan muvofiqlashgani hamda bu jihat operator tomonidan tasviriy yaxlitlikda ko'rsatilganiga guvoh bo'lamiz.

"Tohir va Zuhra" filmida rejissyor Nabi G'aniev bilan ijodiy hamkorlik qilar ekan, D.Demuskiyning obrazlar mohiyatini ochishda rakurslar tanlay bilish, dramaturgik tasviriy yechim izlash borasidagi yangi qirralari ochiladi. Bular o'zbek kinooperatorlik jabhasida yangilik edi. U tasvirga olgan kadrlarda operatorning suratga tushirish mahorati bilan bir qatorda, voqea-hodisalar mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan yorqin, esda qolarli detallar yarq etib ko'zga tashlanardi. Jumladan, "Tohir va Zuhra" filmidagi ko'plab kadrlar katta poeziya, yorug'lik, tabiatga nisbatan muhabbat bilan to'ldirilgan. Mazkur film tasvirlaridan operatorning tabiiy muhitni o'rganishi va bunda quyosh harakati, yorug'likni akslanishi, tundagi oy jilvalarini to'laqonli mahobati bilan his qilish darajasi nihoyatda muhim ekanligini sezish mumkin. Bu o'rinda Tohir va Zuhraning oqshomda bog'dagi uchrashuv sahnasini eslash kifoya. Ma'lum bo'lishicha, mazkur epizod kunduz kuni suratga olingan. Rejissyor N.G'aniev va operator D.Demuskiy bu kadrlarda har ikki sevishganlarning ichki olami, muhabbatga to'liq qalbini, nozik his-tuyg'ularini aks ettira bilganlar. Bular Zuhraning chaqnoq ko'zlaridagi nurni, Tohirning sevgi o'tida yongan o'tli nigohini bera olgan yirik planlarda ifoda etiladi.

Operator ishq manzarasini yoritishda tabiat ko'rinishidan majoziy foydalanadi. Qahramonlarni peyzaj bag'riga tashlab, sevishganlar uchun ajoyib muhit yaratar ekan, bunda yoritish chiroqlari, nur qaytargichlar operatorga katta imkoniyat berganligini kuzatish mumkin. D.Demuskiy yirik plan va kadrlar kompozitsiyasi orqali dramatik ta'sirchanlikka erishish borasida muvaffaqiyatlarga erishgan. Ushbu epizodda tabiat go'yo ekranda qaytadan jonlanadi, u kayfiyatning sezilar-sezilmas o'zgarishiga ham o'z rang-barangligini baxshida etadi — goh qahramonlarga achinadi, goh ularning baxtini ko'rib ma'sumona kulimsiraydi, goh qahramonlarning dushmanlariga nafrat bilan qaraydi.



M.Krasnyanskiy ham o'z uslubi, yo'nalishiga ega ijodkor bo'lgan. U hamkasbi D.Demuskiy bilan qator filmlarda birgalikda ishladi.

M.Kranyanskiy uslubining o'ziga xosligi tomoshabinga tushunarli, qabul qilishi oson bo'lgan tasviriy yechim yaratish, kinematografik usul va texnologiyadan unumli foydalangan holda badiiy ifoda yo'llarini namoyon qilishdan iborat bo'lib, operator milliy xarakter, turmush tarzi va eng muhimi samimiy ruhiyatni ekranda ifoda etishda mahorat ko'rsatdi. Ijodkor san'atidagi o'ziga xoslikni birgina "Alisher Navoiy" filmi misolida atroflicha ko'rib o'tish mumkin.

Rejissyor Komil Yormatovning "Alisher Navoiy" filmi milliy kinosan'atimizda davr va shaxs talqinini ifoda etgan o'ziga xos tarixiy janrni boshlab berdi. Film muvaqqiyatining asosi nafaqat ekran san'ati va tasvir madaniyati oldinga chiqqanligida, balki kino ijodkorlar mahorat darajasi o'sganligida bo'ldi deyish mumkin. "Alisher Navoiy" filmi dunyo tarixiy filmlari orasidagi eng yaxshi namunalarning biridir.

Filmda aniq muhitni, real voqealarni to'laqonli aks ettiruvchi dekoratsiyalar, liboslar, rekvizitlarni to'g'ri va ifodali ko'rsata olish, qahramonlar obrazini ekranda yaratish, davr muhitni zamonaviy kinematografiya vositasida paydo qilishda, o'tmish lavhalarini to'g'ri va haqqoniy ko'rsatishda operatorning o'rnini beqiyosdir. Film qahramonlarining taxt uchun ochiqdan ochiq va pinhona kurashlari, turli intrigalar tarixiy faktlar asosiga qurilgan. Buyuk Alisher Navoiy obrazi adolatparvar, xalqparvar, ziyo tarqatuvchi shoirning qiyofasini to'laqonli ochib berishga qaratilgan. Navoiy filmning ba'zi epizodlarida jamiyatning oddiy bir fuqarosi sifatida gavdalangan, ayrimlarida millati va xalqi haqida qayg'uradigan jamoat arbobi, o'zining adolatli davlat qurish haqidagi yuksak ideallarini tarannum etuvchi faol shaxs tarzida namoyon bo'lgan.

M.Krasnyanskiy mahorat cho'qqisini ko'rsatuvchi filmlardan yana biri rejissyor Y.A'zamovning "O'tgan kunlar" (1968 y.) kartinasidir. Abdulla Qodiriy romani asosida olingan mazkur filmda Otabek va Kumush sevgisi hamda fojeasi bilan bog'liq voqealar tafsiloti aks ettirilgan. Rassom V.Sinichenko yaratgan dekoratsiya va kostyumlarda film syujeti sodir bo'layotgan davr muhitining to'laqonli yaratilishi, epizodlardagi voqealar ruhiyatining plastik vositalar orqali ochilishi, muhit ko'rinishi, kostyumlardagi bo'yoqlar rang-barangligi diqqatga molik. V.Sinichenko kinematografik fazoni yaratishda rejissyor va operator uchun qulay bo'lgan, aktyorlar tomonidan yaxshi o'zlashtiriladigan ko'p planlilik va qulay planirovkalardan unumli foydalanuvchi rassom sifatida tanilgan bo'lib, "Uning filmlarida plastik konsepsiya, plastik va koloristik tuzilishdagi munosabat ko'zga tashlanadi."⁵ Bundan kelib chiqqan operator M.Krasnyanskiy dekoratsiyani syujet muhitini belgilab, unga xarakter beruvchi, makon va zamon munosabatlariga xizmat qiluvchi elementlar sifatida emas, balki filmning butun mazmuni, uning obraz yechimi bilan bog'liq bo'lgan moddiy muhit tarzida qabul qilgan. Bular operatorning o'z ishining ustasi sifatida film tasviriy-ifodaviy jihatlarini belgilashi, milliy koloritni ochish va to'laqonli tasvirlash, nur va soyalardan obrazli talqin yo'lida foydalanishida ko'rinadi.

Otabek va Kumush uchrashuvi aks etgan dastlabki epizoddayoq ular munosabatidagi soflik va samimiyat nozik ranglar orqali tasvirlanib, tanlangan manzara tomoshabinda poklik

⁵ Расулов С.Экран санъатида тасвирий ечим ва унинг асослари. – Т.: ЎзМЭ, 2008. – 119 б.



hissini, insoniy ruhni uyg'otishga qaratilgani sezilib turadi. Bunda operatorning kadr mazmunini belgilashda fazoviy-konstruktiv tasviriy yechim yaratishga bo'lgan e'tibori, birinchi plan uchun maxsus tanlangan detallarni ishlatishi diqqatga molik. "Ilk uchrashuv", "To'y", "Kutilmagan baxt", "Ayriliq", "Sayil" kabi qator epizodlardagi badiiy topilmalar film tasviriy yechimini yaratishdagi operatorning betakror uslubini ifoda etgan.

XULOSA

Operator kamera va ob'ektiv yordamida ijod qilib, ssenarist, rassom, rejissyor g'oyasini va aktyor fiziologik-ruhiy holatini tomoshabinga yetkazib beradi. Agar teatr spektaklida sahnadagi aktyorlarning jonli muloqoti tomoshabinga ishtirok effektini bersa, badiiy filmda bu vazifa operator tasvirlariga yuklanadi. Tasvir vositasida nafaqat jarayonni kuzatish, balki qahramonlardan birining nigohi bilan ikkinchisiga qarash yoki aksincha ko'z, yuz, nigohlar vositasida javob qilishidek so'zsiz, sirli muloqotlar guvohi bo'lish mumkin. Kinokameraning sezgir ob'ektivi qahramonlar kechinmasini beixtiyor tomoshabin qalbiga ko'chirar ekan, ularning quvonchidan sevinib, qayg'usidan birgalikda iztirob chekish holati yuzaga keladi. Shu tarzda teatr sahnasidagi aktyorlardan farqli o'laroq, badiiy filmda qahramonlar kechmishtariga ularning o'ziga xos nigohi sifatida bog'lanish orqali ishtirok effekti paydo bo'ladi.

References:

1. Ikbal Melikuziev. (2020). CINEMATOGRAPHER'S ABILITY IN THE CREATION OF GRAPHIC IMAGE IN UZBEK HISTORICAL FILMS. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(05), 1554 - 1567. Retrieved from <http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10078>
2. Ikboljon, M., & Tirkashaliyevich, K. S. (2019). Creative researches of young cameramen on the creation of graphic image in modern uzbek feature films. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 5230-5236. doi:10.35940/ijeat.A2948.109119
3. Abul-Kasimova X. Kino i xudojestvennaya kultura Uzbekistana. – T.: "Fan",-1991.
4. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslar i/ X. Abulqosimova; mas'ul muharrir H. Ikromov; O'zbekiston Davlat san'at instituti. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 100 b.
5. Akbarov H. Adabiyot va kino. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, – 1984 y.
6. Akbarov H. Sehrli yog'du. Yillar va filmlar, yetuklik bo'sag'asida, ekran va ikki muammo. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977. – 176 b.
7. Aliev M. Xalq sevgan san'at. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973. 134 b.
8. Aliev M. Kino asoslari: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi madaniy-ma'rifiy ixtisosdan bilim olayotgan talabalar uchun o'quv qo'll. – 2-qayta ishlangan va to'ldirilgan nashr. – T.: O'qituvchi, 1993. – 160 b.
9. Aliev M. Zamon bilan hamnafas. (O'zbek kinosi misolida) – T.: "O'zbekiston" 1983.
10. Vozmojnosti kinooperatora v sozdanii graficheskogo obraza v uzbekskix istoricheskix filmax Melikuziev, Mejdunarodnyy jurnal peredovyx nauk i texnologiy 29 (5), 1554–1567.
11. KINOISKUSSTVO UZBEKISTANA: VChERA I SEGODNYa I.M. Melikuziev



12. JURNAL YuRIDICHESKIX, FINANSOVYX I PRIKLADNYX NAUK Innovatsionnaya akademiya
13. Modern Uzbek Cinematography Development Issues (On the example of the Tashkent International Film Festival "Pearl
14. IM Melikuziev.Texas Journal of Multidisciplinary Studies ISSN NO: 2770-0003 [https ...](https://www.tjms.com)
15. Modern Uzbek Cinematography Development Issues (On the example of the Tashkent International Film Festival "Pearl.IM Melikuziev
16. Texas Journal of Multidisciplinary Studies ISSN NO: 2770-0003 [https ...](https://www.tjms.com)